



## MUTLAQ HUQUQLARNI USTAV KAPITALIGA HISSA SIFATIDA KIRITISH BILAN BOG'LIQ NIZOLARNI HAL ETISH VA SUD AMALIYOTI

**Muinova Iroda Muinovna**

Toshkent Davlat Yuridik universiteti magistranti

e-mail: skarimova405@gmail.com +99893-049-48-32

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20455220>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 11-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 15-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

#### KEY WORDS

*intellektual mulk, mutlaq  
huquq, ustav kapitali, xo'jalik  
jamiyati, sud amaliyoti, litsenziya  
shartnomasi.*

### ABSTRACT

*mazkur maqolada xo'jalik jamiyatlarining ustav kapitaliga intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquqlarni kiritish bilan bog'liq nizolarning huquqiy tabiati va tizimli sabablari tahlil qilingan. Maqolada O'zbekiston Respublikasi sud amaliyoti ko'rsatkichlari tahlil qilinib, Germaniya, AQSH va Rossiya kabi xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari hamda WIPO (BIMT) tavsiyalari qiyosiy o'rganilgan va tadqiqot yakunida amaliy takliflar ilgari surilgan.*

Intellektual faoliyat natijalari nafaqat muhofaza qilinadigan huquq, balki muhim iqtisodiy aktiv sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirda ular asosan dasturiy mahsulotlar, texnologiyalar, brendlar shaklida namoyon bo'layotganligini ko'rib turibmiz.

Intellektual mulk obyektlarini ustav kapitaliga kiritish – bu aslida bir necha huquqiy sohaning kesishish nuqtasi. Shu sababli bu tarzdagi jarayondan keyin yuzaga keladigan nizolar ham oddiy mulkiy da'voga o'xshamaydi. Ularda korporativ munosabatlar, eksklyuziv huquqlar va baholash metodologiyasi

bir-biriga bog'lanib ketadi. Ushbu murakkablik nizolarni tartibga soluvchi normalarni tanlab olishda ham, vakolatli sudni belgilashda ham jiddiy qiyinchilik tug'diradi.

Aslida iqtisodiy maqsad bitta, bu – intellektual mulkni ustav kapitaliga kiritish va undan foydalanish. Lekin, bu maqsadga turli huquqiy vositalar orqali erishiladi, xilma-xil intellektual mulk turlari, o'ziga xos huquqiy oqibatlar va himoya mexanizmlarini yuzaga keltiradi. Bu aslida oddiy tuyulishi mumkin, lekin ahamiyatga olinmaydigan mayda detallar borki, ular nizolarga olib keladi.

Statistikaga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyo miqyosida har yili intellektual mulk idoralari (masalan, USPTO, EUIPO, CNIPA) tomonidan ko'riladigan patent rad etilishi, tovar belgisiga e'tirozlar kabi ma'muriy nizolar soni yuz minglab ishlarni tashkil etadi. Birgina WIPO'ning o'zaro domen nomlari bo'yicha ma'muriy nizolari (UDRP) yillik 6 000 tadan ortiqdir.<sup>1</sup>

Faqatgina AQSh federal sudlarining o'zida har yili 12 000 ga yaqin intellektual mulk obyektlari bilan bog'liq da'volar qo'zg'atiladi. Shundan 5 000 dan ortig'ini aynan patent nizolari tashkil etadi. Himoyalani xarajatlari o'rtacha 3 million dollardan oshib ketishi sababli, ushbu sud jarayonlarining 76% qismi yirik korxonalar va kompaniyalarning o'zaro ixtiyoriy kelishuvi bilan yakunlanadi.

<sup>1</sup> WIPO. Total Number of Cases per Year/<https://www.wipo.int/amc/en/domains/statistics/cases.jsp>

Ustav kapitaliga kiritilgan hissa bilan bog'liqlik ulushi: global miqyosida intellektual mulkning kompaniyalar ustav kapitaliga ulush sifatida kiritilishi va undan kelib chiquvchi nizolar (ta'sischilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, litsenziya shartnomalari buzilishi) umumiy sud nizolarining taxminan 5% dan 8% gacha bo'lgan qismini tashkil qiladi. Aksariyat nizolar ustav kapitali emas, balki tovar belgilari qalbaki va kontrafakt qilinishi hamda patent huquqlarining to'g'ridan-to'g'ri buzilishi bilan bog'liqdir.<sup>2</sup>

O'zbekistondagi intellektual mulk nizolari soni esa O'zbekiston sudlarida (fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy) intellektual mulkka oid ishlar soni so'nggi yillarda barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Sud va Adliya vazirligi ma'lumotlari tahliliga ko'ra ko'rsatkichlar quyidagicha:

- fuqarolik sudlarida 65/29 ta ish (2025/2024);
- ma'muriy sudlarda 35/30 ta ish 35 ta ish (2025/2024);
- iqtisodiy sudlarda ~110/90 ta ish (2025/2024);

Jami sudlarda 2024-yilda 149 ta, 2025-yilda 210 ta intellektual mulk bilan bog'liq nizolar ko'rilgan.

2026-yilda esa O'zbekiston Prezidentining 2025-yil noyabrdagi PQ-358-sonli qaroriga muvofiq, yangi "Intellektual mulk muhofazasi" portali ishga tushirillganligi sababli, 2026-yilda qonunbuzarliklarni aniqlash va sudga murojaat qilish holatlari osonlashdi va yil yakuniga borib sudda ko'riladigan nizolar soni 250 tadan oshishi kutilmoqda.

Asosiy nizolar yo'nalishi: O'zbekistondagi nizolarning qariyb 70% qismi tovar belgilari (plagiat brendlar) va kontrafakt mahsulotlarni sotish bilan bog'liq.

Dunyo tajribasida intellektual mulk nizolarining 76% qismi sudgacha yoki sud jarayonida o'zaro ixtiyoriy kelishuv bilan tugaydi. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich hali past bo'lib, ko'p hollarda da'volar oxirigacha ko'rib chiqiladi.<sup>3</sup>

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bunday nizolarni to'rt asosiy guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – hissaning baholanishi atrofidagi nizolar: obyektning oshirib baholash, metodologiyani noto'g'ri qo'llash, mustaqil ekspertizani chetlab o'tish.

Ikkinchi guruh – huquqning o'zi to'g'risidagi nizolar: hissa kirituvchi obyektga nisbatan o'zida bo'lmagan huquqni kiritganligi yoki keyin buning ustidan nizo chiqarilishi.

Uchinchi guruh – kiritishdan keyingi nizolar: hissa kirituvchining obyektidan ruxsatsiz foydalanishda davom etishi, aktivning qiymati keskin o'zgarib ketishi.

To'rtinchi guruh – jamiyat tugatilishi yoki qayta tashkil etilishi jarayonidagi nizolar: intellektual mulkni qanday taqsimlash, u kimga o'tadi kabi masalalar.

Bu guruhlarining har biri o'ziga xos protsessual va moddiy huquqiy muammolar bilan birga keladi. Masalan, birinchi guruhda asosiy kurash ekspert xulosalari atrofida bo'lsa, ikkinchi guruhda e'tirof etish va tan olish da'volari birinchi o'ringa chiqadi.

Nizolar tasodifan yuzaga kelmaydi. Ular aksariyat hollarda bir necha tizimli sababning birlashishidan paydo bo'ladi. Shu sabablarni qonunchilik, tashkiliy va subyektiv darajalarga ajratib ko'rish tahlilni aniq yo'naltirishga yordam beradi.

Qonunchilik darajasidagi asosiy muammo - mavjud normalar intellektual mulkni ustav kapitaliga kiritishning o'ziga xosligini yetarlicha hisobga olmaydi.

Tashkiliy darajada esa intellektual mulk baholash sohasida ixtisoslashgan mustaqil ekspertlar hali yetarli emasligi muammo sifatida ko'zga tashlanadi.

Ikkinchisi – amaldagi qonunchilikka ko'ra, agar litsenziya shartnomasi Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilmasa, u haqiqiy emas deb topiladi (FK 1038-moddasi). Biroq xalqaro amaliyotda shartnoma tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi, davlat ro'yxati esa

<sup>2</sup> CRI GROUP. Corporate research and investigations. Intellectual Property: What do the statistics indicate?

<https://crigroup.com/intellectual-property-what-do-the-statistics-indicate/>

<sup>3</sup> Yuz.uz. Intellektual mulk Konstitutsiya va sud himoyasida. <https://yuz.uz/news/intellektual-mulk-konstitutsiya-va-sud-himoyasida.23.10.2025-yil>.

faqat uchinchi shaxslarni xabardor qilish uchun xizmat qiladi. Bu holat ko'pincha xorijiy investorlar bilan huquqiy nizolarni keltirib chiqaradi.

Boshqa bir omil — iqtisodiy sudlar bunday nizolarni ko'pincha oddiy mulkiy nizo sifatida qarab, intellektual mulk huquqlarining o'ziga xos tabiatini alohida e'tiborga olmaydi. Masalan, ixtiro patentiga nisbatan huquq o'tkazilganligi ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa-da, nizo moddiy mulkka oid umumiy normalar orqali hal etilmoqda. Bu esa keyinchalik boshqa ishlar uchun precedents bo'ladigan to'g'ri yondashuv shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Subyektiv sabablarga kelsak, eng ko'p uchraydigan holat – obyektini ataylab oshirib baholashga urinish. Maqsad odatda ustav kapitalidagi ulushni sun'iy ravishda kattalashtirish va shunday yo'l bilan jamiyat boshqaruvida ko'proq nazorat qo'lga kiritishdir. Startup muhitida bu xatar ayniqsa yuqori: brend, algoritm yoki patent kabi aktivlarning bozor qiymati keng qamrovli bo'lganligi uchun ham subyektiv baholashga katta maydon qoladi.

Germaniya Federal sudi – Bundesgerichtshof (BGH) – intellektual mulkni korporativ munosabatlar doirasida tartibga solish sohasida Yevropa miqyosida eng ko'p e'tiborga olingan amaliyotni shakllantirgan. Uning qarorlari faqat Germaniya uchun emas, balki butun kontinental huquqshunoslik uchun yo'l ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilmoqda.

BGH ning 2002 yilgi «Technik-Patent» ishida (BGH II ZR 293/01)<sup>4</sup> patent huquqini cheklangan mas'uliyatli jamiyatga hissa sifatida kiritish masalasi ko'rilgan. Ish mohiyati shundan iborat ediki, hissa kirituvchi patentni to'liq topshirmasdan, faqat eksklyuziv litsenziya asosida foydalanish huquqini bergan, ammo ustav kapitalidagi ulush patent to'liq topshirilgandagi narxda belgilangan edi. Sud bu holda hissaning ta'xis hujjatlariga kiritilgan qiymati oshirib ko'rsatilgan deb topgan va ish yakunida muhim prinsip belgilangan: litsenziya asosida kiritiladigan huquqning kapital qiymati faqat litsenziya amal qiladigan muddat va doiraga mos ravishda hisoblanishi lozim. Germaniya doktrinasida ushbu yondashuv «Sacheinlagehaftung» — natura shaklidagi hissa kiritish mas'uliyati tamoyili sifatida mustahkamlangan.

Tovar belgisi litsenziyasi bo'yicha ham BGH ning boshqa bir ishlar seriyasi – «Markenlizenz» guruhi muhim ahamiyatga ega. Bu ishlarda asosiy savol qo'yilgan edi: litsenziya beruvchi ishtirokchi keyinchalik jamiyatga raqobatchi bo'lib chiqsa, qanday oqibatlar yuzaga keladi? BGH litsenziya shartnomasida raqobat taqiqini tutuvchi maxsus band bo'lmagan taqdirda ham bunday xatti-harakatni yaxshi niyat prinsipiga zid deb baholagan.<sup>5</sup> Bu qaror O'zbekiston ta'xis shartnomalari amaliyoti uchun ham bevosita ahamiyatli hisoblanadi, raqobat taqiqini oldindan yozib qo'ymaslik keyinchalik da'vo uchun ochiq eshik qoldiradi.

AQShda intellektual mulkni ustav kapitaliga kiritish bilan bog'liq nizolar asosan Delaware Chancery Court tomonidan ko'riladi – yirik kompaniyalarning aksariyati shu shtatda ro'yxatdan o'tgan. Ushbu sud «business judgment rule» va «entire fairness» standartlari bilan mashhur: ya'ni sud boshqaruv qarorining nafaqat natijasini, balki qarorga kelish jarayonini ham ko'rib chiqadi.

In re Emerging Communications, Inc. ishida (2004) Delaware Chancery Court intellektual mulk aktivlari oshirib baholangan holda aksiyalar almashinuvi amalga oshirilgan vaziyatni tahlil qilgan. Sud bu ishda «entire fairness» standartini qo'llab, mustaqil ekspert hisoboti yuzaki tuzilgan yoki umuman mavjud emas bo'lganda sudning nazorat funksiyasi sezilarli

<sup>4</sup> Rechtsprechung, BGH, 25.10.2002 - V ZR 293/01

<https://dejure.org/dienste/vernetzung/rechtsprechung?Gericht=BGH&Datum=25.10.2002&Aktenzeichen=V%20ZR%20293/01>

<sup>5</sup> BGH, Urteil vom 29. September 2008 – II ZR 234/07. GmbHR. 2009

<https://dejure.org/dienste/vernetzung/rechtsprechung?Gericht=BGH&Datum=29.09.2008&Aktenzeichen=II%20ZR%20234/07>

darajada kuchayishi zarurligini ta'kidladi. Bitimni tasdiqlash jarayonida mustaqil direktorlar ishtiroki va ularning xulosa chiqarish qobiliyati ham baholandi.<sup>6</sup>

AQSh huquqida intellektual mulk obyektini oshirib baholab kiritish «fraudulent transfer» – ya'ni firibgarlik yo'li bilan mulk o'tkazish – qoidalari ostida ham ko'rib chiqilishi mumkin. Uniform Voidable Transactions Act (UVTA, 2014) bo'yicha aktivni adolatli qiymatdan past bahoda yoki kreditorlarga zarar yetkazish niyatida o'tkazish bekor qilinadigan bitim sifatida baholanadi.<sup>7</sup>

Rossiya Federatsiyasida intellektual mulk bilan bog'liq korporativ nizolar sohasida doktrina va amaliyot ancha mustahkam deyish mumkin. Rossiya Oliy sud Plenumining 2019 yil 23 apreldagi 10-son qarori bu sohadagi asosiy yo'naltiruvchi hujjat. Uning 51-bandida eksklyuziv huquqni ustav kapitaliga kiritishda RF FKning 1234-moddasi qoidalari qo'llanilishi va bunday shartnoma davlat ro'yxatida qayd etilishi shart ekanligi aniq belgilangan. Bu talab amalga oshirilmagan bitim uchinchi shaxslarga nisbatan amal qilmaydi.<sup>8</sup>

Rossiya Federatsiyasida intellektual mulk (IM) sohasiga ixtisoslashgan yagona sud – Intellektual huquqlar bo'yicha sud (Суд по интеллектуальным правам — СИП) mavjud. Ushbu ixtisoslashgan sud rasman 2013-yil 3-iyuldan boshlab o'z faoliyatini boshlagan. Undan avval (2011-yil dekabrda) sudni tashkil etish to'g'risidagi tegishli federal qonunlar qabul qilingan edi. Muhim jihati Rossiyada bunday ixtisoslashgan sud atigi bittagina - Moskva shahrida joylashgan bo'lib, uning hududiy filiallari mavjud emas. Rossiyaning istalgan hududidan ushbu toifadagi ishlar aynan shu sudga yuboriladi.

Sud tarkibida nafaqat huquqshunos sudyalari, balki texnik obyektlar, ixtirolar va formulalar bilan ishlash uchun maxsus bilimlarga ega bo'lgan sud maslahatchilari – mutaxassislar ham faoliyat yuritadi. Oxirgi yillarda sud amaliyotida sun'iy intellekt orqali yaratilgan obyektlar va raqamli huquqlarga oid nizolar keskin ko'paygan.

Shuningdek, Singapurda ham 2019-yilda Intellectual Property (Dispute Resolution) Act qabul qilingan bo'lib, ushbu qonun bo'yicha intellektual mulk nizolari Singapur Xalqaro arbitraj markazi (SIAC) yoki Oliy sudning ixtisoslashgan bo'linmasi orqali ko'rilishi belgilangan bo'ldi. Bunda ustav kapitaliga kiritish bilan bog'liq aralash nizolar uchun ham aniq protsessual yo'l belgilangan, vakolatlilik masalasi bir marta hal etilgan.

Butunjahon Intellektual mulk tashkiloti yo'riqnomasi esa nizolarni hal etishda foyda adolatli taqsimlanishi kerakligi, shartnomalar shartlari aniq bo'lishi, muzokaralar muhim bosqich hisoblanishi va har ikki tomon manfaatlari hisobga olinishi lozimligi, resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsiya va adolat muvozanati saqlash orqali nizolarning oldini olish muhimligi kabi qoidalarni tavsiya qiladi.<sup>9</sup>

O'zbekistonda intellektual mulkni ustav kapitaliga kiritish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lgan va rasmiy e'lon qilingan sud ishlari hali juda oz. Bu holat bir qarashda sohada «nizo yo'q» degandek tuyulishi mumkin, ammo aslida uning boshqa tushuntirishi ko'proq haqiqatga yaqin. Ya'ni, ishtirokchilar bunday nizolarni sudga olib bormasdan, norasmiy yo'llar bilan hal etishga urinadi, shuningdek, nizoga olib boruvchi munosabatning o'zi yetarlicha shakllanmagan. Natijada amaliyot to'planmaydi, doktrina rivojlanmaydi, xatolardan dars chiqarilmaydi, qonunchilikda o'zgarishlar kiritilmaydi.

<sup>6</sup> In re Emerging Communications, Inc. Shareholders Litigation, 2004 WL 1305745 (Del. Ch. June 4, 2004)<https://law.justia.com/cases/delaware/court-of-chancery/2004/46470-1.html>

<sup>7</sup> Uniform Voidable Transactions Act (2014). National Conference of Commissioners on Uniform State Laws. §§ 4–5. <https://www.uniformlaws.org/viewdocument/final-act-156?CommunityKey=64ee1ccc-a3ae-4a5e-a18f-a5ba8206bf49&tab=librarydocuments>

<sup>8</sup> Решение Арбитражного суда г. Москвы от 14.03.2017 по делу № А40-153417/2016. КАД Арбитр (kad.arbitr.ru) [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_323470/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_323470/)

<sup>9</sup> Rukundo, O., Oliva, M. J., World Intellectual Property Organization. A Guide to Intellectual Property Issues in Access and Benefit-sharing Agreements. Geneva: WIPO, 2018. URL:

[https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo\\_pub\\_1052.pdf](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_1052.pdf)

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Intellektual mulkka oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida"gi Qarori qabul qilingan bo'lib, Qarorning 21-bandiga ko'ra, Qonunda to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan ayrim intellektual mulk obyektlariga bog'liq bo'lgan shartnomalar (litsenziya shartnomasi, huquqlarni to'liq yoki qisman boshqa shaxsga o'tkazish) vakolatli davlat organida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi lozimligiga qaratilishi lozimligi, bunday tartib mavjud bo'lmaganda, intellektual mulkka oid shartnoma (mualliflik shartnomasi, firma nomidan foydalanish to'g'risidagi litsenziya shartnomasi)ni ro'yxatdan o'tkazish talab etilmasligi sudlarga tushuntirilgan.<sup>10</sup>

Oliy sud kengashining 2022 yilgi «Sudyalar malakasini oshirish to'g'risida»gi yo'riqnomasida intellektual mulk nizolari bo'yicha bilimni kuchaytirish zaruriyati tan olingan. Bu hujjat muammoni aniqlash nuqtai nazaridan muhim, ammo ustav kapitaliga kiritish masalasini maxsus tartibga soluvchi yo'riqmalar o'z ichiga olmaydi.

O'zbekistonda intellektual mulkni ustav kapitaliga kiritish bilan bog'liq nizolarda qaysi sud ko'rishi kerak – bu savol o'z-o'zicha alohida muammoga aylanishi mumkin. Nizo bir tomondan korporativ element: ishtirokchi va jamiyat o'rtasidagi munosabat bo'lsa, ikkinchi tomondan intellektual mulk huquqini tan olish yoki himoya qilish masalasini ham o'z ichiga olishi mumkin.

Yuqoridagi Plenum Qarori esa bu masalani aniqlashtirishga katta ko'mak beradi. Qarorga ko'ra, sudlar tomonidan nizolarning sudlovga taalluqliligi masalasini hal qilishda nizoning huquqiy tabiatini (ommaviy yoki xususiy) va nizolashuvchi shaxslarning tarkibini aniqlashlari hamda ushbu masalani O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 26-moddasi, Fuqarolik protsessual kodeksining 27-moddasi, Iqtisodiy protsessual kodeksining 25-moddasi talablaridan kelib chiqib hal etishlari lozimligi belgilangan.

Intellektual mulkka oid ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar belgilangan tartibda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan ko'rib chiqiladi. Bunda ma'muriy huquqbuzarlik yoki jinoyat natijasida intellektual mulk egalari yetkazilgan zarar jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan hal qilinishi mumkin.

Shuningdek, jahon tajribasida intellektual mulkni ustav kapitaliga kiritish bilan bog'liq nizolarda suddan tashqari mexanizmlar – WIPO arbitraji va mediatsiya – bir qancha muhim afzalliklar taklif etadi.

Birinchidan, intellektual mulk va tijorat huquqida ixtisoslashgan arbitr yoki mediator tayinlash imkoniyati mavjud – bu texnik jihatdan murakkab baholash nizolari uchun ayniqsa qimmatli.

Ikkinchidan, jarayonning maxfiyligi ta'minlanadi: kompaniya texnologiyalari va tijorat sirlari ochiq sud jarayonida oshkor bo'lmaydi.

Uchinchidan, xalqaro shartnomalar bo'yicha arbitraj qarorlari ko'plab mamlakatlarda ijro etilishi mumkin, bu esa chet el taraflar uchun muhim.

WIPO Arbitraj va Mediatsiya markazi intellektual mulk nizolari bo'yicha ixtisoslashgan xalqaro muassasa hisoblanadi. Markazning 2022-yilgi hisobotida ta'kidlanishicha, korporativ munosabatlarga oid intellektual mulk nizolari – shu jumladan ustav kapitaliga kiritish bilan bog'liq nizolar - yildan-yilga o'sib bormoqda va endi jami kelishmovchiliklarning ancha sezilarli qismini tashkil qilmoqda.<sup>11</sup>

Demak, nizolarning oldini olishning eng ishonchli yo'li – muammoli vaziyatlar yuzaga kelishidan oldin ularni qanday hal etish tartibini yozib qo'yish hisoblanadi. Ingliz va Germaniya tijorat amaliyotida aksiyadorlar shartnomasi (shareholders agreement) ana shu maqsadda keng qo'llaniladi. Bunday shartnomaning intellektual mulkka bag'ishlangan

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Intellektual mulkka oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida"gi Qarori Toshkent sh., 2023-yil 23-iyun, 19-son

<sup>11</sup> WIPO Arbitration and Mediation Center. Annual Report 2022. — Geneva: WIPO, 2023. — P. 18–24.

bo'limida odatda quyidagilar belgilanadi: baholashni qayta ko'rib chiqish shartlari va muddatlari; hissa kirituvchining jamiyatdan chiqib ketishi holatida obyektning taqdiri; obyektни uchinchi shaxslarga o'tkazish yoki sublitsenziya berish uchun maxsus tartib; hissa kirituvchining raqobat taqiqlari va maxfiylik majburiyatlari.<sup>12</sup>

O'zbekiston amaliyotida ta'xis shartnomalari ko'pincha umumiy standart shakllar asosida tuziladi va intellektual mulk bilan bog'liq maxsus qoidalar ularga kiritilmaydi. Natijada huquqiy makon bo'sh qoladi. Bu bo'shliqni to'ldirish uchun O'zbekiston Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy bandlar to'plami kerak - notariuslar va huquqiy maslahatchilar ana shu namunaviy qoidalardan foydalanib ta'xis hujjatlarini tuzishlari mumkin bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra qisqacha xulosa qiladigan bo'lsak, demak:

- Intellektual mulkni ustav kapitaliga kiritish bilan bog'liq nizolar har doim murakkab aralash xarakter kasb etadi. Bunday nizolarni ko'radigan sudylar korporativ, mulkiy va intellektual mulk huquqini bir vaqtning o'zida bilishlari zarur - aks holda nizo noto'g'ri yo'nalishda hal etiladi.

- Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, ekspertiza sifati va mustaqilligi ko'pincha nizo yakunini belgilovchi hal qiluvchi omilga aylanadi. O'zbekistonda intellektual mulk baholash ekspertlarini akkreditatsiyalash va malaka standartlarini belgilash tizimi yaratilishi - eng ustuvor amaliy qadam.

- Ta'xis hujjatlarida intellektual mulkka oid maxsus qoidalarni dastlab belgilab qo'yish eng samarali nizo oldini olish usuli. Namunaviy band to'plamini ishlab chiqish va tarqatish esa kamchiqim, lekin samarali yechim bo'la oladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1-2-qism. Toshkent. Adolat, 1996.

2. WIPO. Total Number of Cases per Year/ <https://www.wipo.int/amc/en/domains/statistics/cases.jsp>

3. CRI GROUP. Corporate research and investigations. Intellectual Property: What do the statistics indicate? <https://crigroup.com/intellectual-property-what-do-the-statistics-indicate/>

4. Rechtsprechung, BGH, 25.10.2002 - V ZR 293/01

<https://dejure.org/dienste/vernetzung/rechtsprechung?Gericht=BGH&Datum=25.10.2002&Aktenzeichen=V%20ZR%20293/01>

5. BGH, Urteil vom 29. September 2008 - II ZR 234/07. GmbHR. 2009

<https://dejure.org/dienste/vernetzung/rechtsprechung?Gericht=BGH&Datum=29.09.2008&Aktenzeichen=II%20ZR%20234/07>

6. In re Emerging Communications, Inc. Shareholders Litigation, 2004 WL 1305745 (Del. Ch. June 4, 2004) <https://law.justia.com/cases/delaware/court-of-chancery/2004/46470-1.html>

7. Uniform Voidable Transactions Act (2014). National Conference of Commissioners on Uniform State Laws. §§ 4-5. <https://www.uniformlaws.org/viewdocument/final-act-156?CommunityKey=64ee1ccc-a3ae-4a5e-a18f-a5ba8206bf49&tab=librarydocuments>

8. Решение Арбитражного суда г. Москвы от 14.03.2017 по делу № А40-153417/2016. КАД Арбитр (kad.arbitr.ru) [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_323470/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_323470/)

9. Rukundo, O., Oliva, M. J., World Intellectual Property Organization. A Guide to Intellectual Property Issues in Access and Benefit-sharing Agreements. Geneva: WIPO, 2018. URL: [https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo\\_pub\\_1052.pdf](https://www.wipo.int/edocs/pubdocs/en/wipo_pub_1052.pdf)

<sup>12</sup>Shareholders' Agreements in England and Wales: Practical Law Company. — London: Thomson Reuters, 2023. Part 4, Section 12 (Intellectual Property). Shuningdek: Winkler M. Corporate Contracts and Firm Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 2018. — P. 88–97.

10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining "Intellectual mulkka oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida"gi Qarori Toshkent sh., 2023-yil 23-iyun, 19-son
11. WIPO Arbitration and Mediation Center. Annual Report 2022. — Geneva: WIPO, 2023. — P. 18–24.
12. Shareholders' Agreements in England and Wales: Practical Law Company. — London: Thomson Reuters, 2023. Part 4, Section 12 (Intellectual Property). Shuningdek: Winkler M. Corporate Contracts and Firm Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 2018. — P. 88–97.
13. Yuz.uz. Intellectual mulk Konstitutsiya va sud himoyasida. <https://yuz.uz/uz/news/intellektual-mulk-konstitutsiya-va-sud-himoyasida.23.10.2025-yil>.

